

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

UDK:338.43:664:005(575.1)

DAMINOVA O‘G‘ILOY MIRZAQUL QIZI

**OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINI TARTIBGA
SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13-Menejment

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

**Ilmiy rahbar: iqtisod fanlari doktori, professor
Yo‘ldoshev N.Q.**

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
I BOB	OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINI TARTIBGA SOLISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....	12
1.1.§	Menejmentning tartibga solish funksiyasi mazmuni, usullari va tamoyillari.....	12
1.2.§	Oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solish ilmining rivojlanishi.....	24
1.3.§	Oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solishning rivojlangan mamlakatlar tajribasi	38
	Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	47
II BOB	O'ZBEKISTON OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINING RIVOJLANISH HOLATI.....	49
2.1.§	Oziq-ovqat mahsulotlari bozorining asosiy ko'rsatkichlari tahlili.....	49
2.2.§	Oziq-ovqat mahsulotlari bozoriga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillar.....	66
2.3.§	Respublika hududlarida kartoshka, sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirish holati tahlili.....	86
	Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	111
III BOB	OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI.....	113
3.1.§	Oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solish yo'llarini takomillashtirish.....	113
3.2.§	Oziq-ovqat mahsulotlari bozorini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari.....	121
3.3.§	O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari bozorini rivojlantirish istiqbollari	137
	Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	152
	XULOSA.....	153
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	156
	ILOVALAR.....	168

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati Jahonda 2023 yildagi davomli siyosiy-iqtisodiy inqiroz tufayli oziq-ovqat xavfsizligi masalasi barcha olimlar diqqat markazida bo'ldi. Jahonning 48 mamlakatida 238 million kishi yuqori darajadagi oziq-ovqat tanqisligiga duch kelib, bu ko'rsatkich 2022 yilga nisbatan 10 foizga ko'p¹. Bunday vaziyatda oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

Aholi soni izchil o'sayotgan bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Buning ustiga, global iqlim o'zgarishlari, yer va suv taqchilligi qishloq xo'jaligida qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Shunday sharoitga qaramasdan, 2024 yil yurtimizda 9 million tonna don, 3 million tonnadan ortiq paxta, 16 million tonnadan ziyod sabzavot va poliz mahsulotlari, 5 million tonna meva va uzum, 4 million tonna kartoshka, 15 million tonnadan ko'p go'sht va sut yetishtirildi. Oziq-ovqat sanoati bo'yicha esa 343 ta loyiha ishga tushirildi.² Hududlarda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirishning boshqaruv mexanizmlari va uning uslubiy jihatlarini yanada takomillashtirish, ushbu tarmoq istiqbollari belgilash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish ustuvor yo'nalishlar sifatida qaralmoqda.

O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini to'laqonli ta'minlash, oziq-ovqat mahsulotlari assortimentini ko'paytirish va sifatini oshirish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy islohotlar olib borilmoqda. Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini yanada rivojlantirishda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida "Oziq-ovqat va nooziq ovqat mahsulotlari bozorlarida taklifni oshirish va mavsumiy taqchiliklarni bartaraf etish, ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish va narxlar barqarorligini ta'minlash, 2026-yilga borib oziq-ovqat mahsulotlari hajmini 7,4 mln tonnaga, qayta ishlash darajasini sut bo'yicha 32 foiz, go'sht - 25 foiz, meva-sabzavot - 28 foizga yetkazish, oziq-ovqat mahsulotlari

¹ https://civil-protection-humanitarian-aid.ec.europa.eu/news-stories/stories/global-food-crisis-what-you-need-know-2023_en

² <https://president.uz/uz/lists/view/7757>

zaxirasini yaratish va ichki bozorda intervensiya qilish hajmlari ko'rsatkichlari, hududiy hokimliklarning ichki bozorda narxlar barqarorligini taminlash borasidagi vazifalarini aniq belgilash, asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini barqarorlashtirish, zaxiralarni shakllantirish va ulardan foydalanish qoidalarini ishlab chiqish bo'yicha choralarni nazarda tutish"³ vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarning bajarilishi oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatining boshqaruv mexanizmlarini yanada takomillashtirish, soha faoliyatidagi mavjud muammolarni boshqaruv tizimi orqali bartaraf etish asosida amalga oshirish bilan belgilanadi.

Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2020 yil 11 noyabrdagi PQ-4887-son "Aholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019 yil 29 iyuldagi PQ-4406-son "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, 2018 yil 16 yanvardagi PF-5303-son "Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoniga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi, 2018 yil 13 dekabrdagi PF-5598-son "O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat haqida axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2018 yil 24 noyabrdagi PF-5583-son "Tadbirkorlik va innovatsiyalar sohalaridagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari va mazkur sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi. Ularda, shuningdek, sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot mavzusining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-

³ <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari hamda ularning boshqaruv mexanizmini takomillashtirish masalalari xorijiy mamlakatlarda O.Gorb, I.Yasnolob, N.Protsiuk, N.A.Volkova, D.V.Yaskovoy, A.N.Shatalova, M.V.Taradina⁴, Assel G., Churchill G.A., Brown T.J., Kotler Ph., Keller K.L., Setiawan I., Karatajaya H., Malhotra N.K., Kennedy D., Praet V.D., Salenbacher J. Traindl A., Trout J., Doyle P.⁵ kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarning oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tadqiq etishga katta hissa qo‘shgan iqtisodchi olimlari qatoriga N.N.Evseev, N.F.Oksanich, N.A.Vasileva, I.A.Angelina, S.V.Salita, A.A.Urasova va boshqalarni kiritish mumkin.

O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligi masalalari, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashning nazariy-amaliy asoslari bir qator mahalliy olimlar A.Ortiqov, D.N.Saidova, I.B.Rustamova, I.Yu.Umarov, M.Karimov,

⁴ Gorb O.A., Yasnolob I.A., Protsiuk N.Y. Organizational-economic mechanism of management of food industry enterprises competitiveness. *Annalysis of agrarian science* 14 (2016) 191-195.; Волкова Н.А., Яцковой Д.В. Анализ конкурентоспособности пищевых предприятий. УДК: 338.45:664.6(477) <http://orcid.org/0000-0001-6401-5584>.; Шаталова А.Н. «Особенности формирования стратегии устойчивого развития предприятий пищевой промышленности». *Научный журнал НИУ ИТМО. Серия Экономика и экологический менеджмент* № 2, 2020.; Тарадина М.В. «Формирование механизма управления процессами развития предприятий пищевой промышленности» Автореферат. 2011. Стр.13-20. Евсеев, Н. Н. Системный подход к менеджменту пищевого предприятия // *Пищевая промышленность*. 2006. № 10. С. 56.; Оксанич Н.В. Построение интегрированной структуры управления пищевым холдингом / Н. В. Оксанич // *Пищевая промышленность*. - 2008. - №38. - с.24-27.; Васильева Н.А. Проблемы развития пищевой промышленности России в условиях глобальной конкуренции // *Российское предпринимательство*. - 2012. - № 7. - С. 103-107.; Ангелина И.А., Салита С.В. «Оценка конкурентоспособности предприятий пищевой промышленности»: методический аспект. 2519-2019 *Вестник института экономических исследований* 2018, № 4(12). Урасова А.А. “Особенности развития пищевой промышленности в Пермском крае в современных условиях. Экономическая политика и управление экономическим развитием”. 2015. -Стр.134-135.

⁵ Ассэль Г. Маркетинг: Принципы и стратегия: -М.: Инфра-М.,1999; Churchill G.A., Brown T.V. Basic marketing research, -Thomson, United States, 2010; Kotler Ph. Marketing essentials. - Prentice Hall, United States, 2019; Kotler Ph., Setiawan I., Kartajaya H. Marketing 3.0: From Products to Customers to the Human Spirit. – wiley, 2012.; Malhotra N.K. Marketing research an applied orientation. – Prentice Hall, United States, 2016; On Strategic Marketing. Harvard Business review Press, - Boston, Massachusetts, 2019; Kennedy Dr No B.S. Guide to Brand – Boston, Massachusetts, 2019; Kennedy Dr No B.S. Guide to Brand – Building by Direct Response – Entrepreneur Press, 2014, Praet V.D. Unconscious Branding. How neuroscience can empower marketing. – Prentice Hall, USA, 2012, Salenbacher J. Creative personal branding. - BIS Publishers, 2013, Traindl A. Store branding excellence. – retail /branding. -2011., Trout J. Big Brands Big Trouble. – John wiley&sons, inc. New York, 2013, Doyle P. Marketing management and strategy. –Pearson Education, London, 2002.

M.M.Azlarova⁶ va boshqalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Biroq, oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solishning ma'muriy va bozor mexanizmlari yetarlicha o'rganilmaganligi ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini taqozo etadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining "Iqtisodiyotni transformatsiyalash sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari" mavzusi doirasidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solishning ma'muriy va bozor mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

menejmentning tartibga solish funksiyasi mazmunini ochib berish, uning usullari va tamoyillarini o'rganish;

oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solish nazariyalarini qiyosiy tahlil etish;

oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solishning ilg'or mamlakatlar tajribasini tahlil qilish;

oziq-ovqat mahsulotlari bozorining asosiy ko'rsatkichlari tahlilini o'tkazish;

oziq-ovqat mahsulotlari bozorida kartoshka, sabzavot va poliz ekinlarining o'rnini ochib berish;

mamlakatimiz viloyatlari kesimida kartoshka, sabzavot va poliz mahsulotlari bozorining o'sish sur'atlarini tahlil qilish;

⁶ Abdurahim Ortiqov. «Sanoat iqtisodiyoti» (Darslik). - T.: TDIU, 2014 y, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. Toshkent 2014. 45-52 bet.; Saidova D.N., Rustamova I.B., Tursunov Sh.A. «Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi». -T.: O'quv qo'llanma. «O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi» bosmaxonasi nashriyoti, 2016. 12-b.; Umarov I.Yu. Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish istiqbollari. Monografiya. – T.: Fan va texnologiyalar, 2014. –23 b.; Karimov M.A. «Oziq-ovqat sanoati korxonalarida boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish» / Monografiya. - Andijan: «STEP BY STEP PRINT» MChJ, 2021.- 100 b. M.M.Azlarova Iste'mol bozorini oziq-ovqat tovarlari bilan to'ldirishda marketing strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirish. (qandolat mahsulotlari misolida)-PhD dissertatsiyasi 08.00.11.2023

oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solishda davlating o'rnini yoritib berish;

oziq-ovqat mahsulotlari bozorini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini taklif etish;

oziq-ovqat bozorini davlat tomonidan tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy modelini ishlab chiqish;

O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari bozorini 2030 yilgacha prognoz ssenariylarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti O'zbekiston Respublikasi oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va oziq-ovqat bozori faoliyatini rivojlantirish tizimi olingan.

Tadqiqotning predmetini oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar majmui tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiya, tizimli yondashuv, ekspert baholari, sintez, taqqoslash va ekonometrik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O'zbekiston viloyatlari kesimida oziq-ovqat bozorini tartibga solish uchun menejmentning institutsionallik, barqarorlik, uzoq muddatni mo'ljallash, shaffoflik, majmuaviylik, vertikal integratsiya ustuvorligi, profilaktik boshqarish tamoyillariga rioya etish taklif etilgan;

oziq-ovqat bozorini bosqichma-bosqich rivojlantirish uchun davlat tomonidan menejmentning tartibga solish funksiyasini izchil bajarish zarurligi asoslangan, maqsadli dasturlarni amalga oshirish tizimi taklif etilgan, ushbu dasturlarni bosqichma-bosqich bajarish modeli ishlab chiqilgan;

oziq-ovqat bozorini tartibga solishga ta'sir etuvchi omillarning regression tahlili xulosalariga asosan oziq-ovqat mahsulotlari bozoriga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning SEM-modeli ishlab chiqilgan, ushbu modeldan oziq-ovqat mahsulotlari balanslarini tuzishda foydalanish tavsiya etilgan;

O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari narxlari prognoz ko'rsatkichlarini belgilash, oziq-ovqat mahsulotlari va xomashyosini yetishtirishni ko'paytirish, oziq-ovqat mahsulotlari va xomashyosi narxlari o'sishining oldini olish, kelgusi yil uchun ijtimoiy ahamiyatga molik asosiy oziq-ovqat mahsulotlari va xomashyosiga ehtiyojning prognoz hajmlarini ishlab chiqish bo'yicha takliflar asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oziq-ovqat sanoati korxonasini rivojlantirish bo'yicha taklif etilgan boshqaruv mexanizmi amaliyotda qo'llash yo'llari va natijalari nazariy jihatdan ko'rsatib berilgan;

mamlakatimizda oziq-ovqat sanoati faoliyatining rivojlanish holati va o'zgarish tendensiyalari tahlili asosida hududlarning resurs salohiyati baholangan;

jahon mamlakatlarida foydalanilayotgan oziq-ovqat bozorini tartibga solish model va mexanizmlarni mamlakatimizda ham amaliyotga joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tavsiya etilgan tamoyillar tizimi viloyatda mahalliy oziq-ovqat bozorlarini rivojlantirish jarayonini oqilona yo'lga qo'yish va shu asosda hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish samaradorligini uzoq muddatga oshirishni ta'minlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda foydalanilgan ma'lumotlar va taniqli iqtisodchi olimlarning oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga oid bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy va tanqidiy tahlil qilinganligi, axborot bazasi milliy va nufuzli korxonalarning rasmiy manbalariga, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining statistik ma'lumotlariga asoslanganligi hamda natijalarning O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mavjud yo'nalishlardagi uslubiy yondashuvlarni takomillashtirishni va ulardan kelgusida oziq-ovqat sanoati korxonalarida boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga bag'ishlangan maxsus ilmiy

tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi hamda takliflar oziq-ovqat sanoati korxonalarida boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishda uslubiy baza bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa oziq-ovqat sanoati korxonalarida boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishda, sanoat korxonalarining boshqaruv faoliyatini rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqishning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganishda, oziq-ovqat sanoati korxonalarining tarmoq va sohalar doirasida o‘ziga xos boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishda qo‘llash mumkinligi hamda amaliy tavsiyalardan oliy ta’lim tizimida «Menejment», «Ishlab chiqarish menejmenti» fanlarini o‘qitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

O‘zbekiston viloyatlari kesimida oziq-ovqat bozorini tartibga solishda menejmentning institutsionallik, barqarorlik, uzoq muddatni mo‘ljallash, shaffoflik, majmuaviylik, vertikal integratsiya ustuvorligi, profilaktik boshqarish tamoyillarini qo‘llash maqsadga muvofiqligi haqidagi takliflaridan O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 3-fevraldagi “Oziq-ovqat xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-1023-son Qonunning 5-moddasini (Oziq-ovqat sohasidagi asosiy prinsiplar)ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 17-martdagi №3/dn-56-sonli dalolatnomasi). Natijada tavsiya etilgan tamoyillar tizimi orqali O‘zbekistonda mahalliy oziq-ovqat bozorlarini tartibga solish jarayonini oqilona yo‘lga qo‘yish va shu asosda hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish samaradorligini uzoq muddatga oshirishni ta’minlash imkoniga erishildi.

oziq-ovqat bozorining rivojlanish xususiyatlarini bosqichma-bosqich shakllantirish uchun oziq-ovqat bozorini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish zarurligi, mavjud tuzilmani to‘ldiradigan ichki oziq-ovqat bozorini maqsadli dasturlar orqali qo‘llab-quvvatlash tizimini shakllantirish

haqidagi takliflaridan O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 3-fevraldagi “Oziq-ovqat xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-1023-son Qonunning 15-moddasi (Oziq-ovqat mahsulotlari tanqisligiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha davlat tomonidan ko‘riladigan choralar)ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 17-martdagi №3/dn-56-sonli dalolatnomasi). Natijada, Respublikamizda markaziy va mahalliy hokimiyat organlari o‘z vakolatlari doirasida oziq-ovqat mahsulotlari bozoriga ta’sir o‘tkazish mexanizmlari takomillashtirilgan va samarali tizim yaratilgan.

oziq-ovqat bozorini tartibga solishga ta’sir etuvchi omillarning regression tahlilini o‘tkazish asosida oziq-ovqat mahsulotlari bozoriga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning SEM-modelini ishlab chiqish, uning oziq-ovqat bozorini tartibga solishga ta’sir etuvchi tashqi omillar va ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlashga oid takliflaridan O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 3-fevraldagi “Oziq-ovqat xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-1023-son Qonunning 17-moddasi (Oziq-ovqat balansini shakllantirish)ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 17-martdagi №3/dn-56-sonli dalolatnomasi). Natijada, oziq-ovqat bozorini tartibga solishga ta’sir etuvchi tashqi omillar va ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash va shu orqali oziq-ovqat mahsulotlari narxini prognoz qiymatlarini aniqlikda tahlil qilish imoniyati yaratildi.

O‘zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari narxlari prognoz ko‘rsatkichlarini belgilash, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va xomashyo yetishtirishni rivojlantirish, shuningdek oziq-ovqat mahsulotlari va xomashyosi narxlari o‘sishining oldini olish bo‘yicha takliflar tayyorlash, kelgusi yil uchun ijtimoiy ahamiyatga molik asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari va xomashyosiga bo‘lgan ehtiyojning prognoz hajmlarini ishlab chiqish, ularning bajarilishi yuzasidan chora-tadbirlar ko‘rish zarurligi haqidagi takliflaridan O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 3-fevraldagi “Oziq-ovqat xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-1023-son Qonunning 9-moddasi ikkinchi qismi to‘qqizinchi va o‘ninchi xatboshilarini

(O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi vakolatlari)ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 17-martdagi №3/dn-56-sonli dalolatnomasi). Natijada 2030 yilgacha kartoshka yetishtirishni 72 foiz, sabzavot mahsulotlari yetishtirishni 65 foiz, poliz mahsulotlari yetishtirishni 80 foizga ko'paytirib, narxlarni 20 - 40 foizga pasaytirish rejalashtirildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari ifodalangan 20 ta ish aprobatyadan o'tkazilgan. Ularning 15 tasi respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlari materiallari to'plamlarida, 5 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, jumladan, 4 tasi respublika jurnallarida va 1 tasi xorijiy jurnalda aprobatyadan o'tkazilgan ishlar.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish e'lon qilingan. Ularning 8 tasi respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlari materiallari to'plamlarida, 6 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, jumladan, 5 tasi respublika jurnallarida va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 155 betni tashkil etadi.

I BOB. OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINI TARTIBGA SOLISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI

1.1. Menejmentning tartibga solish funksiyasi mazmuni, usullari va tamoyillari

Menejment fani yoki menejment fenomeni faqat XX asrda turli nuqtai nazardan o'rganilishi kerak bo'lgan mustaqil bilim sohasi sifatida tan olingan. Biroq, maqsadli harakatlarni muvofiqlashtirish va rag'batlantirish usullari to'plami sifatida u ancha avval, jamoaviy mehnat shakllana boshlagan davrda paydo bo'lgan. Bundan tashqari, har safar tobora ko'proq yangi faoliyat turlarining aniqlanishi, ularning ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida ajralib chiqishi keyingi xronologik bosqichni belgilab bergan.

Shvesiyalik tadqiqotchi Bengt Karlof so'nggi 7000 yil davomida menejment rivojlanishining keng qamrovli xronologiyasini tuzgan. U tayyorlagan jadvalda menejment tarixidagi 50 ga yaqin fundamental yangiliklar qayd etilgan bo'lib, u qadimgi shumerlar tomonidan yozuv kiritilishi va tovar, xom ashyo resurslari miqdorini belgilash boshlanishi bilan boshlangan. Qadimgi Misr ruhoniylari esa, Bengt-Karlofning qarashlariga ko'ra, rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish zarurligini birinchi bo'lib anglaganlar. Natijada yirik qurilish loyihalarini boshqarish xodimlarning funksiyalarini ajratish va aloqa uchun yozma hujjatlardan foydalanish zarurati tug'ilgan.⁷

Biroq, birinchi boshqaruv inqilobi qadimgi shumerlardan 3000 yil o'tgach, Bobil shohi Xammurapi hukmronligi davrida qayd etilgan. Aynan uning davrida davlatni boshqarish funksiyasi cherkov hokimiyatidan ajratilgan va birinchi professional byurokratlar paydo bo'lgan. Hammurapi qonunlari deb ataladigan kodeks - birinchi rasmiy boshqaruv tizimi ishlab chiqilgan. Navuxodonósor II⁸ davrida, ya'ni yana 12 asr o'tib, ishlab chiqarish va qurilish sohalarida boshqaruv ishlari bilan professional ravishda shug'ullangan bir guruh odamlar -

⁷ Бенгт Карлоф, Фредрик Левингссон. Менеджмент от А до Я. Концепции и модели. - Стокгольмская школа экономики в Санкт-Петербурге 448 стр. – 2006 г.

⁸ Navuxadnazar Yangi Bobil imperiyasining asoschisi Nabopolassarning to'ng'ich o'g'li edi.